

“Ishlayotgan institut kimga halaqit beryapti?” nomli maqolaga RASMIY MUNOSABATI

Kuni kecha FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti laboratoriya mudiri Baxtiyor Rasulovning facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida, shuningdek, bir nechta internet nashrlarida **“Ishlayotgan institut kimga halaqit beryapti?”** nomli maqola e'lon qilindi.

Unda maqola muallifi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi muhokamasi portalida (<https://regulation.gov.uz/uz/d/64187>) e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Farg'ona ilmiy tajriba stantsiyasini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori loyihasi bo'yicha o'z fikrlarini e'lon qilgan. Qarorga ko'ra, FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Farg'ona filiali negizida Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Farg'ona ilmiy tajriba stantsiyasini tashkil etish nazarda tutilgan.

Mazkur maqolada keltirilgan e'tirozlar bo'yicha quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Mazkur qaror Davlatimiz Rahbarining 2022-yil 12-13-may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha tuzilgan Bayonnoma asosida ishlab chiqilgan. Lekin mazkur **Bayonnoma Fanlar akademiyasi bilan kelishilmagan.**

Muallif iddaosiga ko'ra, *“Eng og'riqli masala, Fanlar akademiyasi bu safar ham oddiy tomoshabin bo'lib turibdi”.*

Qaror loyihasi kelishish uchun Fanlar akademiyasiga kiritilgan zahoti Institut Farg'ona filiali yopilishiga qat'iy qarshi ekanini bildirgan va Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Farg'ona viloyati hokimligiga vitse-prezident imzosi bilan xat chiqarilgan. Lekin FA e'tirozlari qabul qilinmagan va hech qanday munosabat ham bildirilmagan.

Shundan so'ng, yuqoridagi xatlarga hech qanday javob bo'lmagach, joriy yil 1-iyulda Qishloq xo'jaligi vazirligiga Fanlar akademiyasi prezidenti imzosi bilan qayta xat chiqarilgan.

FA tomonidan chiqarilgan xatlarda shunday deyiladi: *“Mazkur filialda hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan yaratilgan ishlanmalarni keng joriy qilish uchun Farg'ona filialidan samarali foydalanib kelinmoqda. Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va tajribalar natijalari ilovada keltirilgan.*

Jumladan, 2021-yilda Institut olimlari tomonidan yaratilgan g'o'zaning Samara, O'zFA-710, AN-521 va Zamin navlari Farg'ona filiali ekin maydonlarida ekilib, 40 s/ga hosildorlikka erishildi va 12 tonna elita urug'lik tayyorlandi. Bug'doyning Pahlavon navidan 50 s/ga hosil olinib, 96 tonna elita urug'liklari tayyorlandi va viloyat hududlariga ekilib, 150 mln.so'm foyda ko'rildi.

Shu bilan birga, so'nggi paytlarda yengil sanoat, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumatning ko'plab topshiriqlari ijrosini ta'minlashda mazkur filialning o'rni katta bo'lib mazkur topshiriqlarni bajarilishi uchun tegishli rejalar qabul qilingan.

Shu munosabat bilan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib Farg'ona viloyati, Bog'dod tumani, Konizor qishlog'ida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Farg'ona filiali Institut tasarrufida qolishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.”

Project.gov.uz normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida ham Fanlar akademiyasi mazkur qaror loyihasiga qat'iy qarshi ekanligini bildirgan.

Shuningdek, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi tajriba dalasining olib qo'yilishi hamda Do'rmon tajriba dalasi maydonida uy-joy qurilishi masalasi bir-nechta marta ko'tarilgan va bu bo'yicha rasmiy munosabat

bildirilgan (<http://academy.uz/news/yosh-olimlar-nimadan-norozi-maqolasida-keltirilgan-vajlar-asoslimi>).

Darhaqiqat, maqolada ko'tarilgan masala juda ham o'rinli va asosli. Ayniqsa, so'nggi yillarda Davlatimiz Rahbari va Hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligi va paxtachalik sohasini rivojlantirish, ekinlarning mahalliy navlarni yaratish, bu boradagi ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish borasida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlashda albatta, bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlarni olib borayotgan olimlar uchun tajriba maydonlari muhim hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, muallif tomonidan ko'tarilgan masalani qo'llab-quvvatlaymiz.